

Auditni turlari va shakllarining mohiyati.

Rayimqulova Muxlisa Oybek qizi

Jizzax politexnika instituti talabasi

rahimqulovamuhlisa@gmail.com

ANNOTATSIYA: Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy hisobotining va u bilan bog'liq moliyaviy axborotning auditorlik tekshiruvini tekshiriladigan moliyaviy hisobotning hamda u bilan bog'liq moliyaviy axborotning ishonchliligini va buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqqligini aniqlash maqsadida auditorlik tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.

Kalit so'zlar: tasdiqlovchi audit, tizimli-orientirlangan audit, tavakkalchilikka asoslangan audit, ichki audit, tashqi audit, majburiy audit; tashabbuskorlik auditi, Operatsion audit; Mos keluvchanlik auditi; Moliyaviy hisobotlar andit.

Auditorlik tekshiruvini davlat sirlaridan va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirdan foydalangan holda o'tkazish faqat ularni himoya qilish choralari ko'rilganidan keyin qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Tasdiqlovchi audit tekshirish davomida auditor har bir xo'jalik muomalasini tekshirgan va tasdiqlagan, hamda parallel ravishda hisob registrlarini tuzgan. Hozirda esa bu hisob ishlarini qayta tiklash deyiladi. Tizimli-orientirlangan audit mijozning ichki nazorat tizimining qay darajada Ishlayotganligini tekshirishga asoslanadi. Agarda ichki nazorat tizimi oqilona tashkil qilingan hamda yaxshi ishlayotgan bo'lsa, tashqi auditorlar o'z ishlarini tanlab tekshirish hamda alohida ob'ektlarni nazoratdan o'tkazish bilan cheklanadi. Bu esa, albatta, auditorning ish vaqtini hamda audit jarayoniga qilinadigan xarajatlarni kamaytiradi. Ammo, auditor bunday tekshiruv o'tkazishda mijozning xo'jalik faoliyati tizimi samaradorligini har jihatdan baholashi hamda korxonada yuz beradigan o'g'irlik, firibgarlik holatlarini ham inobatga olishi lozim. Tavakkalchilikka asoslangan audit tavakkalchilik baland, asoslangan bo'lgan joyda tekshirish vaqtini ko'proq ajratish hamda past tavakkalchilik bo'lgan joyda tekshirishga kam vaqt ajratishga asoslanadi. Bu tekshirish xarajatlarini kamaytirish yuzasidan kelib chiqadi. Auditorlik tekshirivi iqtisodiy nuqtai nazardan ikki turga bo'linadi:

1. Ichki audit;
2. Tashqi audit

Ichki audit - bu xo'jalik ichida uning faoliyatining samaradorligini tekshirish va aniqlashda mustaqil baho berishdir. Ichki audit uchun korxonaning o'zi yoki uning bir bo'limi-korxonada ichidagi nazorat bo'limi javob beradi. Ichki auditning maqsadi korxonada xizmatchilariga o'zlarining majburiyatlarini a'lo darajada bajarishga yordam berishdir. Ichki audit korxonaga tekshirilayotgan ob'ektlar haqida aniq tahlil, baholash, tavsiya maslahat va ma'lumotlarni beradi. Ichki auditning vazifalari quyidagilardan iborat:

- korxonaning ishiga moliyaviy nazorat;
- iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha ichki nazorat tizimi ixtisoslashganligini tekshirish;
- boshqaruv xodimlarining ishlab chiqarish va sotish bo'yicha tahlil ishlari;
- korxonalarning likvidligi, rentabelligi va ish faoliyatini baholash;
- korxonada ishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Korxonada ichki auditorning bo'lishi shu korxonada uchun foydalidir. Tekshirish o'tkazish usullari tashqi auditnikiga o'xshash bo'lib, tekshirish hajmi va ob'ekti jihatdan farq qiladi. Ichki audit, avvalo, korxonada moddiy boyliklarning saqlanishi va foydalanilishi, hisob-kitobning

to'g'riligi va boshqa ob'ektlarni tekshirishga qaratiladi. Ichki auditda, odatda, to'liq tekshirish o'tkaziladi.

Ichki audit faoliyatining eng keng tarqalgan turi operatsion auditdir. Operatsion audit bu auditorning korxonada resurslardan samarali foydalanish, samarali yutuqlarga erish maqsadida korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishdir. Uning maqsadi xodimlarning o'z vazifalarini bajarish va korxonaning rentabelligini oshirishga yordam berishdir. Ichki auditorlarga ham mustaqillik kerak. Ular axborot to'plashda korxonaning rahbari tazyiqidan xolis. Ichki audit quyidagi shakllarda tuzilishi mumkin: yillik hisobotni tasdiqlash uchun aksionerlarning umumiy yig'ilishida har yili saylanadigan, doimiy faoliyat ko'rsatadigan taftish komissiyasi shaklida. Uni tuzish zaruriyati korxonaning Nizomida ko'rsatiladi. Ko'p hollarda taftish komissiyasi tuzilmay qoladi. Korxonaning rahbari tomonidan bevosita tashkil etilgan maxsus ichki nazorat bo'limi shaklida va auditorlik firmasi bilan shartnomaga muvofiq ichki auditni o'tkazish shaklida. Agar korxonada ichki audit tashkil etilgan bo'lsa, tashqi auditorning yordamidan foydalanishi mumkin.

Tashqi auditor ishini samaradorligi ichki auditor bilan hamkorlik qilsa, ancha ortadi. Har yillik auditorlik tekshiruvini davomida ichki auditor tashqi auditor nazorati ostida alohida ishlarni bajarishi mumkin. Tashqi audit xo'jalik yurituvchi sub'ektning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotining haqiqiylikini ob'ektiv baholash maqsadida shartnoma asosida auditorlik kompaniyalari yoki yakka auditorlar tomonidan o'tkaziladi. Tashqi auditning asosiy xususiyatlaridan biri bu mijoz korxonaga nisbatan hech qanday manfaati bo'lmagan, ya'ni uning mulkdori, ta'sischisi, boshlig'i yoki boshqa lavozimida ishlamaydigan, mustaqil, xolis auditor tomonidan o'tkazilishidir. Agarda auditor tekshirayotgan korxonaning mulkdori, ta'sischisi, boshlig'i yoki boshqa lavozimida ishlaydigan shaxsi bo'lsa, u holda auditorlik faoliyati uchun berilgan litsenziya bekor qilinishi ham mumkin.

Tashqi audit korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini baholash hamda uning moliyaviy hisobotini tasdiqlash uchun o'tkaziladi. Bundan tashqari tashqi auditor xo'jalik yurituvchi sub'ektning xarajatlarini minimallashtirish va foydani maksimallashtirish maqsadida ularning faoliyatini yaxshilash, hisob ishlarini tashkil qilish va qayta tashkil qilish, hisob oshlarini yuritish, soliqqa tortish bo'yicha takliflar beradi. Tashqi audit natijalari korxonaning buxgalteriya hisobi holati, ichki nazorat tizimi ahvoli, yillik moliyaviy hisoboti ishonchligini tasdiqlovchi xulosada bayon qilinadi. Bundan tashqari, tashqi audit natijalari loyihalar, sxemalar, biznes-rejalar, ma'lumotnomalar ko'rinishida taqdim etilishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda auditning uchta turi alohida ajratib ko'rsatiladi:

1. Operatsion audit;
2. Mos keluvchanlik auditi;
3. Moliyaviy hisobotlar auditi.

✚ Operatsion auditda barcha xo'jalik muomalalari va jarayonlari, ularning ish samaradorligiga va unumdorligiga bo'lgan ta'siri o'rganiladi. Operatsion auditda unumdorlik va samaradorlik ko'rsatkichlari, qimmatli qog'ozlar hamda moliyaviy tizimga rioya qilishning buxgalteriya tamoyillariga mos kelishi nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqiladi.

✚ Mos keluvchanlik auditi bu xildagi tekshirishda auditing mamlakat miqyosidagi qonunlarga, shuningdek, barcha me'yoriy hujjatlarga mos kelishi yoki kelmaslik sabablari o'rganiladi. Masalan, korxonaning faoliyatini auditorlik tekshirishdan o'tkazishda uning korxonaning Nizomiga yoki mavjud yo'riqnomalarga mos bo'lishini tekshiruvdan o'tkazish.

✚ Moliyaviy hisobotlar auditi bunday tekshiruv moliyaviy va buxgalteriya xodimlari tomonidan o'tkazilib, asosan korxonaning to'lov qobiliyati moliyaviy natijalar, sotish Jarayonlarining darining hisobotlarda qanchalik darajada aks ettirilganligi tekshiriladi.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazilishining davriyligiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

1. Dastlabki audit,
2. Davriy audit.

Dastlabki audit auditor yoki auditorlik tashkiloti tomonidan ushbu korxonani auditor birinchi marta tekshirishni anglatadi.

Davriy audit takroriy shartnomalar orqali bir korxonaga bitta auditor yoki auditorlik firmasi tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa, albatta, mijozning malakali auditor bilan uzoq muddatli hamkorlik qilishga bo'lgan qiziqishidan kelib chiqadi.

Auditorlik tekshiruvi o'tkazilishining majburiy yoki majburiy emasligiga ko'ra 2 ga bo'linadi:

1. Majburiy audit;
2. Tashabbuskorlik auditi.

O'RQ-677 ning 35-moddasida batafsil belgilab berilgan bo'lib, quyidagi tashkilotlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tishi lozim:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlovchi boshqa fondlar hamda ularning investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilari;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ajratmalaridan iborat bo'lgan xayriya, jamoat fondlari va boshqa fondlar;
- ustav fondida (ustav kapitalida) davlatga tegishli ulushga ega bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat unitar korxonalarini;
- fond va tovar birjalari;
- hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo'lsa.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilganidan keyin o'n besh kun ichida, biroq hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunidan kechiktirmay, soliq organlariga auditorlik xulosasining ko'chirma nusxasini taqdim etadi.

Majburiy auditorlik tekshiruvini qonunga muvofiq o'tkazish-dan bo'yin tovlash xo'jalik yurituvchi subyektning mansabdor shaxsiga nisbatan ma'muriy jazo qo'llanilishiga sabab bo'ladi.

Yillik moliyaviy hisobotning auditorlik tekshiruvini hisobot yilidan keyingi yilning 15-iyunigacha o'tkazmaslik va auditorlik xulosasining yo'qligi xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvi o'tkazilishidan bo'yin tovlashi deb e'tirof etiladi.

Soliq organlari tomonidan ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin kalendar yil tugaguniga qadar majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazmaslik xo'jalik yurituvchi subyektdan bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravari miqdoridagi summada jarima undirishga sabab bo'ladi. Xo'jalik yurituvchi subyekt jarimani ixtiyoriy ravishda to'lashdan bosh tortgan taqdirda, xo'jalik

yurituvchi subyektga nisbatan huquqiy ta'sir choralari qo'llash to'g'risidagi masala iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

Jarimani to'lash xo'jalik yurituvchi subyektning majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishdan ozod qilmaydi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir ishlarga haq to'lash auditorlik tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqqan shaxs yoki organ hisobidan amalga oshiriladi.

Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tashabbusiga ko'ra auditorlik tekshiruvini auditorlik tashkiloti va ushbu organlar o'rtasida tuzilgan shartnoma asosida o'tkaziladi hamda mazkur shartnoma asosida haq to'lanadi. Bunda nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan ayni bir auditorlik tashkilotini ayni bir xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatini ayni o'sha asoslarga ko'ra tekshirishga takroran jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazishga doir ishlarga haq to'lash auditorlik tekshiruvini o'tkazish tashabbusi bilan chiqqan shaxs yoki organ hisobidan amalga oshiriladi.

Tashabbus tarzidagi auditorlik tekshiruvini o'tkazish predmeti, muddatlari hamda boshqa shartlari auditorlik tekshiruvining buyurtmachisi va auditorlik tashkiloti o'rtasida tuziladigan auditorlik tekshiruvini o'tkazish to'g'risidagi shartnomada belgilanadi.

Auditorlik tekshiruvini qay tarzda o'tkazilishiga ko'ra majburiy va tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlarga bo'linadi. Shuningdek, auditorlik tekshiruvini nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkin.

Nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan auditorlik tekshiruvlar jarayonida olingan ma'lumotlar faqat mazkur organlar ruxsati bilan va ular ruxsat qilgan hajmda oshkor qilinishi mumkin. Huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha tuzilgan auditorlik xulosasi O'zbekiston Respublikasi jinoyat-protses-sual kodeksiga muvofiq taynlangan sud-buxgalteriya ekspertizasi xulosasiga tenglashtiriladi. Sud-buxgalteriya ekspertizasi ayrim o'ziga xos xususiyatlari bilan auditorlik tekshiruvlaridan tubdan farq qiladi. Ko'p hollarda ekspertiza ekspert muassasalarining maxsus xonalarida o'tkaziladi. Zarur hollarda ekspertiza o'tkazish joyi ekspert tomonidan, ekspertizani tayinlagan organ bilan kelishilgan holda aniqlanadi. Xulosa tuzish uchun zarur bo'lgan dastlabki va yig'ma buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari va hisobot shakllari ekspertiza obektlari bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, ekspertiza o'tkazish jarayonida taftish dalolatnomasi, ekspert xulosalari, ayblanuvchilar, jabrlanuvchilar va guvohlarning ko'rsatmalari va ishdagi boshqa materiallarda keltirilgan ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin.

Sud-buxgalteriya ekspertizasini amalga oshirishda quyidagilarni aniqlashga doir masalalar hal etiladi:

✚ tovar-moddiy zahiralari, pul mablag'larining kamomadi yoki oshiqcha chiqishi va moddiy zarar summalari bilan bog'liq ma'lumotlarning haqqoniyligi;

✚ tovar-moddiy zahiralarni qabul qilish, saqlash, sotish va pul mablag'larining harakatiga doir muomalalarni rasmiylashtirishning to'g'riligi;

✚ moliya-xo'jalik faoliyatiga doir muomalalarni hujjatlarda aks ettirishning buxgalteriya hisobi xalqaro va milliy standartlari hamda boshqa tegishli me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi;

✚ tergov olib borilayotgan ishga aloqador shaxslar ko'rsatmalarining buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga muvofiqligi;

✚ materiallar, tayyor mahsulotlar, tovarlar va pul mablag'larini kirimi, chiqimi hamda hisobdan o'chirilishining hujjatlar bilan asoslanganligi; hisobga olinmay qolgan mahsulotlar hajmi va qiymatini texnologlar, tovarshunoslar va boshqa mutaxassislar xulosalarini hisobga olgan holda aniqlash;

✚ fuqarolik sudlov ishlari tartibida hal etiladigan da'volarga doir summalar miqdorining hujjatlar bilan asoslanganligi;

✚ tovar-moddiy zahiralari va pul mablag'lari kamomadi yoki oshiqcha chiqishi vujudga kelgan davrda moddiy javobgar hisoblangan shaxslar, hamda ekspertiza jarayonida buxgalteriya hisobi va nazorat talablariga rioya qilinmaganligi aniqlanganda, buning uchun mas'ul shaxslar;

✚ moddiy zarar etkazilishiga olib kelgan yoki uning o'z vaqtida aniqlanishiga to'sqinlik qilgan, buxgalteriya hisobi va nazorat tizimining kamchiliklari.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Турумова, Д. (2022). Банк назоратида ички ва ташқи аудит ўтказишнинг аҳамияти. *Science and Education*, 3(12), 1013-1022.
2. Турумова, Д. (2022). Банк кредитлари аудитини такомиллаштириш масалалари. *Science and Education*, 3(10), 640-645.
3. Abdumannonovna, T. D. (2023). WAYS OF DEVELOPING THE INTERNAL AUDIT SERVICE IN BUSINESS ENTITIES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 2(8), 37-40.
4. Turumova, D. A., & o'g'li Tolibboyev, Q. G. (2023). AUDITORLIK FAOLIYATIDA TANLAB TEKSHIRISHNING MOHIYATI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 234-240.
5. Turumova, D. A. (2023). O 'ZBEKISTONDA ICHKI NAZORAT TIZIMI-AUDITORLIK TEKSHIRUVI JARAYONINING ASOSIY ELEMENTI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 608-612.
6. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA MUHIMLIK DARAJASI. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 2(14), 60-62.
7. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITING MOLIYAVIY BOZOR UCHUN ZARURLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 3(34), 290-294.
8. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISH. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(22), 243-248.
9. Abdumannonovna, T. D. (2024). IMPORTANCE AND ROLE OF INTERNAL AUDIT IN ENTERPRISES. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 6-9.
10. Abdumannonovna, T. D. (2024). DEVELOPMENT AND USEFUL ASPECTS OF AUDITING ACTIVITY IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 15-18.
11. Abdumannonovna, T. D., & Abdurasul, A. D. (2024). FORMATION OF STATE FINANCE AND AUDIT ACTIVITY IN THE EARLY PERIODS IN UZBEKISTAN. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 34-37.

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-4, ISSUE-3

12. Abdumannonovna, T. D., & Sherzod, K. S. (2024). SIGNIFICANCE AND ROLE OF INTERNATIONAL AUDITING STANDARDS. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 57-60.
13. Abdumannonovna, T. D. (2024). FRAUD DETECTION IN AN AUDIT. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 136-140.
14. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK DALILLARINING AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA DOLZARBLIGI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 469-473).
15. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHNING AFZALLIGI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 474-478).
16. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK TEKSHIRUVIDA EKSPERT ISHLARIDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 483-487).
17. Abdumannonovna, T. D. (2023). AUDITORLIK XULOSASIDA ASOS BOLUVCHI MALUMOTLAR-AUDITORLIK DALILLARI. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (Vol. 1, pp. 494-498).
18. Abdumannonovna, T. D. (2024). THE AUDITOR'S PROFESSIONAL ETHICS ARE THE BASIS OF THE AUDITOR'S ACTIVITY. *JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE*, 3(1), 225-229.
19. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDITOR ISHI SIFATINI NAZORAT QILISHDA AUDITORLIK STANDARTLARINING UYG'UNLIGI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 265-270.
20. Abdumannonovna, T. D., & Habibullo G'anijon o'g, A. (2024). The Role of International Audit Organizations in the Transition to International Standards in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 1-6.
21. Abdumannonovna, T. D. (2024). An Understanding of the Auditor's Professional Ethics and its Importance in the Auditor's Work. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 7-11.
22. Abdumannonovna, T. D. (2024). LICENSING PROCEDURE OF AUDITING ACTIVITIES IN UZBEKISTAN AND CURRENT RESULTS. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 35-40.
23. Abdumannonovna, T. D. (2024). STUDYING THE COMPANY'S ACTIVITIES AND ACCOUNTING DURING THE AUDITOR'S INSPECTION. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(2), 21-27.
24. Abdumannonovna, T. D. (2024). Purpose, Tasks, Necessity of Audit in Uzbekistan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 2(2), 89-92.
25. Abdumannonovna, T. D. (2024). Methods of Obtaining Audit Evidence. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 221-226.
26. Abdumannonovna, T. D. (2024). EFFECTIVE RESULTS OF APPLYING ANALYTICAL PROCEDURES IN AUDITING.

27. Abdumannonovna, T. D. (2024). EXTERNAL AUDITORS AND THEIR LIABILITY TO THIRD PARTIES. *Gospodarka i Innowacje.*, 44, 71-75.
28. Abdumannonovna, T. D. (2024). Auditorlik Tekshiruvida Firibgarlikni Aniqlashda Professionallik Qobiliyatini Qo'llash. *Miasto Przyszłości*, 45, 138-144.
29. Abdumannonovna, T. D. (2024). NEW UZBEKISTAN AND THE MUTUAL INTERESTS OF THE" BIG FOUR" INTERNATIONAL AUDITING COMPANIES. *Miasto Przyszłości*, 45, 600-605.
30. Abdumannonovna, T. D. (2024). Audit Risk, its Elements and Their Assessment. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 847-854.
31. Abdumannonovna, T. D. (2024). AUDIT-AS A FACTOR OF INCREASING BUSINESS EFFICIENCY IN ENTERPRISES. *Miasto Przyszłości*, 45, 594-599.
32. Abdumannonovna, T. D. (2024). The Document Presented by the Auditor is" Audit Report and its Contents". *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 991-997.
33. Abdumannonovna, T. D. (2024). Relationship With Auditing Standards in Controlling the Quality of Auditor's Work. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(2), 998-1003.
34. Abdumannonovna, T. D. (2024, March). Auditorning axloq kodeksiga rioya etish burchlarining afzalliklari. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE* (Vol. 1, No. 3, pp. 80-87).
35. Abdumannonovna, T. D. (2024). Respublikamizda auditorlarni sertifikatlashtirish va malakasini oshirishdagi natijalarning samarasi. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(3), 682-687.